

# **Paxta maydonlarini defoliatsiya qilish yuzasidan ko'rgazmali seminar o'tkazildi**



Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani "Surxon" hududi "Oltin mexnatobod paxtasi" fermer xo'jaligining dalasida g'o'zani defoliatsiya qilishga bag'ishlangan ko'rgazmali seminar bo'lib o'tdi. Unda 2023 yil hosiliga tayyorgarlik ishlarining borishi, g'o'za defoliatsiyasi tadbirlarini qisqa muddatlarda o'tkazish kabi dolzarb masalalar muhokama etildi.

Tadbirda viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov, qishloq xo'jaligi mas'ullari, tuman hokimlarining sohaga mas'ul o'rinnbosarlari, paxta to'qimachilik klasterlari, fermer xo'jaligi rahbarlari hamda qishloq xo'jaligi sohasida ko'p yillik tajribaga ega agronom-olimlar ishtirok etdi.

Joriy yilda viloyatda 72 ming 270 hektar maydonda paxtaning mahalliy iqlim sharoitiga mos, serhosil va ertapishar navlari yetishtirilmoqda. Shundan 64 ming 770 hektar paxtazorni defoliatsiya qilish rejalashtirilgan. Defoliatsiyani o'z vaqtida va sifatli o'tkazish maqsadida 219 ta OVX purkagichlari belgilangan dislokatsiyalarga yig'ilib, ularning texnik holati ko'zdan kechirildi. Texnika vositalarining qariyb barchasiga sifatli texnik va servis xizmati ko'rsatildi, mavsumga shay holga keltirildi.

Viloyat rahbari mas'ullarga tadbirlarni uyushqoqlik bilan belgilangan muddatda amalga oshirish topshirig'ini berdi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)